

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti

**“Bank-moliya xizmatlari” fakulteti
“Bank va jamg‘arma ishi” kafedrası**

**“Himoyaga tavsiya etildi”
kafedra mudiri
Z.D. Niyozov**

KURS ISHI

Mavzu: Tijorat banklari xizmatlari bozori va ularni
rivojlantirish yo‘llari

Bajardi: *BI 111- guruh talabasi
Amriyev M.M*

Ilmiy rahbar: *ass.Tog‘ayev S.S*

Samarqand 2013 yil

Himoya sanasi «____»_____2013 yil

Bahosi _____

1. _____
2. _____
3. _____

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti

“Bank-moliya xizmatlari” fakulteti

“Bank va jamg‘arma ishi” kafedrası

**«Tasdiqlayman»
kafedra mudiri
Z.D. Niyozov**

« _____ » _____

Kurs ishi bo'yicha «Bank-moliya xizmatlari» fakultetining «Bank ishi» ta'lim yo'nalishi
2-bosqich BI-111 guruh talabasi Amriyev Mansurga

Topshiriq

1. Kurs ishining mavzusi: ***Tijorat banklari xizmatlari bozori va ularni rivojlantirish yo'llari***

2. Kurs ishi bo'yicha birlamchi ma'lumotlar olish
manba'lari: _____

3. Kurs ishi rejasi va bajarish muddatlari:

T/R	Kurs ishining rejalari	Bajarilish muddatlari
I	Bank xizmatlarining nazariy asoslari.	
II	Bank xizmatlarining huquqiy asoslari	
III	O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari xizmatlari bozori va ularning amalga oshirilish tartibi	

Topshiriq berilgan sana _____

Kurs ishini topshirish muddati _____

Kurs ishini rahbari _____

Topshiriqni oldim _____

Eslatma: 1. Topshiriq ikki nusxada tuziladi, bir nusxasi talabaga beriladi, ikkinchi nusxasi kafed-rada saqlanadi

2. Ushbu topshiriq kurs ishiga ilova qilinadi

Mavzu: Tijorat banklari bozori va ularni rivojlantirish yo'llari.

Reja:

Asosiy qism

1. Bank xizmatlarining nazariy asoslari.
2. Bank xizmatlarining huquqiy asoslari.
3. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari xizmatlari bozori va ularning amalga oshirilish tartibi (XOATB "AMIRBANK" misolida).

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgarishlar va inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish milliy bank tizimi rivojlanishini ta'minlashning zamonaviy usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov „...iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishda banklar va boshqa moliya tashkilotlarini ahamiyati juda katta. Banklarsiz sanoat bo'lmasligi, eksport bo'lmasligi, banklarsiz sarmoya bo'lmasligini biz juda yaxshi bilamiz. Bank sohalari va ularning taraqqiyoti O'zbekiston hukumatining diqqat markazida turibdi”¹ deb takidlaganlar.

Milliy iqtisodiyotda bozor infratuzilmasining rivojlangan bo'g'inlaridan biri bank tizimidir. Bank tizimining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni katta bo'lib, uning samarali faoliyat yuritishi boshqa nisbatan tarmoqlarga jiddiy ijobiy ta'sir etadi. “Aynan banklar, ta'bir joiz bo'lsa, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy – iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog'liq”². Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari tovarlari va xizmatlariga bo'lgan talab ortib boradi. Tijorat banklari rivojlanish strategiyalarida asosiy yo'nalish sifatida yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqishga o'z e'tiborlarini qaratadilar.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish sharoitida bank tizimi barqarorligini ta'minlash O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, “bank xizmatining yangi turlarini joriy etish, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb etish kamida 30foizga ko'paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan oshirish uchun mustahkam asos yaratish masalalarini qo'shimcha ravishda ishlab chiqish talab etiladi”³.

¹ Karimov I.A Bank tizimi, pul muomalsi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. Toshkent O'zbekiston, 2005. B.77

² Karimov I.A Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni barataraf etishning yo'llari va choralari. –Toshkent: O'zbekiston, 2009. –B.47.

³ Karimov I.A. asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir.- Toshkent: O'zbekiston, 2010.-B.57-58.

Iqtisodiyotni modernizatsilash sharoitida "...bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish bank tizimiga aholi hamda joriy investorlarning ishini yanada mustahkamlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish"⁴ bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruligini taqozo qiladi. Darhaqiqat, "bu borada mobil aloqa, internet, videotelefon tizimi, raqamli televidenie, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, injiniring va boshqa zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirishga alohida e'tabor qaratilmoqda"⁵.

Binobarin, tijorat banklari yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini barqaror iqtisodiy o'sishini va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim vosita sifatida baholaydi. Chunki, banklar moliya bozorida yuqori texnologiyani mujassamlashtirgan yangi xizmatlarni joriy etish va sifatini yaxshilamasdan samarali faoliyat ko'rsata olmaydilar.

Kurs ishining maqsadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini barqaror rivojlantirish va sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kurs ishining vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot ishi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- bank xizmatlarini ishlab chiqishning konseptual asoslarini tadqiq etish va ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqish;
- "bank xizmati", "bank operatsiyasi" va "bank mahsuloti" tushunchalariga takomillashgan takliflar berish va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26 noyabrda PQ-1438-sonli "2011-2015 yillarida respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y, 48-son, 442-modda.

⁵ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi. –Toshkent: O'zbekiston, 2011.-B.17.

- bank xizmatining sifati va uni tavsiflovchi korsatkichlar, mezonlarni tahlil qilish va ularni bank tizimiga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish;
- rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari taklif qilayotgan yangi xizmatlarni tahlil qilish va ularni respublikamiz banklari amaliyotiga ijodiy tatbiq etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;
- respublikamiz tijorat banklarida modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy xizmatlarni ishlab chiqishning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- respublikamiz tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarning joriy etish holatini baholash va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

Kurs ishining ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari xizmatlari olingan.

Kurs ishining predmetini iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari tomonidan yagi bank mahsulotlarini, xizmatlarini ishlab chiqish va joriy etish jarayonida sodir bo'layotgan moliyaviy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi.

Kurs ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Kurs ishining **ilmiy ahamiyati** mazkur kurs jarayonida olingan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan o'rta va uzoq muddatli istiqbolda tijorat banklarining moliyaviy xizmat turlarini yanada rivojlantirish muammolarini chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan kurs ishlarini olib borishda foydalanilishi bilan belgilanadi.

Kurs ishining materiallari va asosiy g'oyalari oily o'quv yurtlarida "Kredit jarayonini tashkil qilish va boshqarish", "Sinditsiyalashgan kreditlar berish amaliyoti", "Bank menejmenti va marketingi" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanilishi mumkin.

Kurs ishining tuzulishi va hajmi. Kurs ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1. Bank xizmatlarining nazariy asoslari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank mahsulotlari va xizmatlari bozori barqaror sur`atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Bank xizmatlari nazariyasi evolyutsiyasi qator rivojlanish bosqichlarini bosib o`tdi. Bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining boshlang`ich bosqichida X.Duglas⁶ va G.Brayanning⁷ ilmiy ishlari bank xizmatlari bozori va uning bank xizmati segmentini o`rganishga bag`ishlangan. 2000 yil BMT iqtisodiy va ijtimoiy kengashi sessiyasida rivojlangan mamlakatlar va boshqa mamlakatlar o`rtasida “raqamli jarlik” shakillanayotgan dalolat beruvchi joriy vaziyat haqidagi “XXI asrda taraqqiyot va xalqaro hamkorlik: bilimlarga asoslangan global iqtisodiyot konsepsiyasida axborot texnologiyalarning roli” nomli deklaratsiya tayyorlanishi bank xizmatlari nazariyasi rivojining yangi bosqichi boshlanayotganidan darak bermoqda.

Bank xizmatlari nazariyasidagi atamalarning zaif bazasi, zamonaviy bank xizmatlari bozorida g`arb banklari tajribasini qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari, bank xizmatlarini eng yangi bank texnologiyalaridan foydalangan holda ko`rsatish kabi qator muammolar axborotning yopiqligi va olib bo`lmasligi, g`arb va mamlakatimizdagi manbalarda asosan umumiy tavsif va tavsiyalarning mavjudligi kabi ob`ektiv sabablar tufayli yetarli darajada batafsil o`rganilmagan. “Bank xizmati”, “bank mahsuloti”, “bank operatsiyasi” tushunchalariga farqi o`zaro aloqadorligi va bog`liqligi aniqlandi.

Amaliyotda turli nuqtai-nazarlar mavjudligi bois tijorat banklari xizmatlari, operatsiyalari va mahsulotlarini tavsiflash va ularning turlarinitasniqlash borasida yagona yondashuv mavjud emasligi aniqlandi va shartli qator mezonlar (bank xizmatining iqtisodiy mazmuni, risk darajasi, mablag`larni joylashtirish tavsifi, mijozlar tarkibi, daromadlik darajasi, to`lash muntazamligi, ko`rsatish usuli,

⁶ Дуглас. Х. Банковская политика в области кредитования.-М.: Слово, 1971-508 с.

⁷ Брайан Г. Конкуренция в банковской сфере.-М.: Экономика и финансы, 1970.-428 с.

taqdim qilish vaqti, hisob-kitob shakli, o'tkazilgan valyuta shakli, murakkablik darajasi kabi) bo'yicha tasniflandi.

Bank xizmatlari yangi xizmatlarni taklif etish va ularning sifat xususiyatlarini yaxshilash yo'li bilan mijozlarni jalb etishga qaratilgan. Bank xizmati bank operatsiyalarini optimal darajada bajarishga ko'maklashadi, ishlab chiqilgan va ko'rsatilgan bank xizmatlari esa bank operatsiyalari bilan birgalikda bank mahsulotini yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti pul-tovar munosabatlari asosida rivojlanayotgani uchun bank xizmati mijozlar uchun tovarlar bo'lib xizmat qiladi. Bank xizmat sifatini oshirish yangi ilmiy yondashuv va ishlanmalarni talab etadi.

“Bank xizmati tovar sifatida” konsepsiyasi bank sohasidagi inovatsion jarayonlarni tashkil qilish va yangi bank mahsulotlari ishlab chiqishni rejalashtirishda katta ahamiyatga ega. Bank faoliyatidagi inovatsion jarayonlarni tahlil qilish natijasida, yangi bank mahsulotining hayotiylik sikli yeti bosqichdan iborat ekanligi aniqlandi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bank xizmatlari bozoridagi raqobat kurashida bank xizmatlarining sifati muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Bank xizmati sifatini bank xizmatlarining ko'zlangan va bir-biriga bog'liq ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ega bo'lgan xossa va xususiyatlarni yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin.

Iqtisodiy nuqtai nazardan bank xizmatining u yoki bu ehtiyojini qondirish qobiliyatlari tavsifi, bank xizmatining foydali xususiyatlari majmuasi bank xizmati sifatini ifodalaydi va bu holat bank xizmatini “tovar” iqtisodiy tushunchasiga tenglashtiradi. Bank xizmatining raqobatbardoshlik ko'rsatkichi – sifat ko'rsatkichidan farqli ravishda, mijozning aniq manfaati va ehtiyojlari qondirilishini ta'minlovchi xususiyatlar majmuasi bilan aniqlanadi, boshqa xususiyatlar inobatga olinmaydi. Masalan, bank xizmati sifati yangi xususiyatlarga ega bo'lishi hisobiga sezilarli darajada oshirilsa, lekin, uning qiymati mijozlarning aksariyatiga jiddiy qiziqish uyg'otolmasa, unda bank xizmatining yuqori darajadagi sifati va past darajadagi raqobatbardoshligini kuzatish mumkin.

Amerikalik olimlar tomonidan bank xizmatining sifati me'zonlari konseptual modeli⁸ ishlab chiqilganligi va quyidagi me'zonlar, ya'ni, moddiylik (bankning jixozlanganligi: orgtexnika, bino interyerlari, bank mutaxassisining tashqi ko'rinishi, axborot materiallari), ishonchlilik (va'da qilingan xizmatni aniq, asosli va ko'rsatilgan muddatda bajarish), ziyraklik (samimiy yordam berish va tezkor xizmat ko'rsatish), dadillik (xizmat ko'rsatuvchi bank mutaxassisining bilimliligi, ma'suliyatliligi, ishonchliligi va xushmuomalaligi), xayrixoxlik (jonkuyarlik ko'rsatish va bank xizmati istemolchisiga individual yondashish) bilan o'lchanishi asosida shakillanganligi ko'rsatilgan. Bundan, bank xizmati sifatiga xar tomonlama yondashilganlik ko'rinadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bank tizimini erkinlashtirishga katta e'tibor berildi. Rivojlangan mamlakatlardagi banklar kabi bizning davlatimizda ham banklar taraqqiy etib, ular bajaradigan xizmatlar talkomillashib bormoqda. Tijorat banklarining xizmatlari ular uchun ma'lum miqdorda daromad olishga qaratilgan. Keyingi yillarda bank xizmatlarining turlari va miqdori ko'payib, bu sohada bank faoliyatining jiddiy yo'nalishiga, unung daromadi manbalaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, bank daromadida asosiy o'rinni har xil xizmatlardan keladigan tushumlar egallamoqda.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan aholiga va xo'jalik yurutivchi sub'ektlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar miqdor va sifat ko'rsatkichlari jihatidan xalqaro bank amaliyoti andozalari talablariga javob berishi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda banklararo raqobat muhiti to'liq shakillanmaganligi mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirishga va sifatini oshirishga salbiy ta'sir qilmoqda.

Tijorat banklari xizmatlarining miqdoriy tavsifi xizmatlarning miqdori, ko'lam va doirasi bilan belgilansa, bank xizmatlarining sifat tavsifi xizmatlarning sifati, tezkorligi va maqsadli amalga oshirilishi, mijozlarning miqdoriy va sifat tavsifi

⁸ Parasuraman A., Zeithaml V. & Berry L. A conceptual model of service quality and its implications for future research // Journal of Marketing. – Vol.49 (Fall). – P. 41-50.

hamda samaradorligi ular tomonidan baholash sohasida olib borilayotgan siyosat bilan uzviy bog'liqdir. Bank xizmatlari uchun asoslangan baholarni aniqlash tijorat banklari uchun bozorning o'zgaruvchan konyukturasiga moslashish imkonini yaratadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning 600 dan ortiq turi mavjud. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan mijozlarga 50 dan ortiq xizmat turlari taklif etiladi. Banklarimiz tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar bo'yicha to'lovlar mustaqil belgilanadi va ular xilma xildir.

Bank xizmatlari deganda tijorat banklarining strategic va tezkor faoliyati hamda samarali boshqarish bilan bevosita bo'g'liq bo'lgan harakatlar majmuasi tushuniladi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston banklari o'z xizmatlarini yetarli darajada shakillantirishga erishdi. Biroq banklar o'rtasidagi raqobat ularni qo'shimcha mijozlar jalb etish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar doitasi va sifatini kengaytirish uchun yangicha yondashishga undamoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank xizmatlari tobora kengayib sifati yaxshilanmoqda, yangi istiqbolli mijozlarni jalb qilishda raqobat kuchayib bormoqda. Tijorat banklari xizmatlarini va ularning sifat ko'rsatkichlarini baholash uchun bank xizmatlari tarkibiy tuzulishini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Bank xizmatlarini quyidagi turli mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin.

1. Mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishi jihatidan:

- ✓ to'g'ridan-to'g'ri xizmatlar (direct services), bevosita mijozlarning ehtiyojlarini qondiradi, masalan, kredit berish, to'lovlarni o'tkazish, hisobvaraqlar ochish, investitsion xizmatlar;
- ✓ bilvosita xizmatlar (related services), mijozlarga taqdim etilishi bilan ularga qulaylik tug'diradigan va foydali bank xizmatlari, (kliring xizmatlari, xoum banking, konsalting xizmatlari, plastic kartochkalar va boshqalar.).

2. Mijozlarning yuridik maqomi jihatidan bank xizmatlarini 2 ga bo'lish mumkin:

- ✓ yuridik shaxslarga ko`rsatiladigan chakana bank xizmatlari;
- ✓ jismoniy shaxslarga ko`rsatiladigan chakana bank (riteyl) xizmatlari.

3. Bank faoliyatidan kelib chiqib:

- ✓ asosiy bank xizmatlari;
- ✓ qo`shimcha bank xizmatlari farqlanadi.

4. Murakkablik darajasi bo`yicha bank xizmatlari va mahsulotlarini quyidagi darajalarga bo`lish mumkin:

1-darajali mahsulot va xizmatlar – ko`pchilik istemol qiluvchi va foydalanuvchi bank xizmatlari (kreditlash, depozitlar jalb qilish, kliring xizmatlari va bosh.);

2-darajali mahsulot va xizmatlar – maxsus tayyorgarlikka ega bo`lgan bank xodimlarini talab qiluvchi xizmatlar (aktivlarni boshqarish, investitsion xizmatlar);

3-darajali mahsulot va xizmatlar – professional bilim va tajribani talab qiluvchi xizmatlar (korxona moliya, turli aktivlarini boshqarish);

4-darajali mahsulot va xizmatlar – moliyani rejalashtirish, moliyani rejalashtirish, moliya injeneriyasi sohasidagi maxsus bilimlarni talab qiluvchi xizmatlar.

Shuni takidlash lozimki, internet paydo bo`lishi bilan mijozlarga xizmat ko`rsatish sifati va moliyaviy operatsiyalar o`tkazishning yangi standartlari bilan ajralib turuvchi bank xizmatlari bozori shakillandi. Bunda elektron pullarni joriy etish, intellektual dastur ta`minoti va tarmoq texnologiyalarini takomillashtirish rivojlantirishnig istiqbolli yo`nalishlaridan hisoblanadi.

Bank xizmatlari sifatiga quyidagi omillar ta`sir ko`rsatadi:

- ✓ bank barqarorligi va obro`si;
- ✓ bank aktivlari va kapitali hajmi;
- ✓ mijoz bazasi;
- ✓ ko`rsatiladigan xizmatlar ko`lami va hajmi;
- ✓ mavjud filiallar va uni kengaytirish istiqbollari;
- ✓ reklama siyosati;
- ✓ malakali mutaxassislar.

Bank xizmatlarinin miqdor va sifat ko'rsatkichlariga turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari faoliyatining xususiyatlari ko'lamiga qarab yuqoridagi omillar turlicha ta'sirga ega bo'ladi.

Bank xizmatlarining miqdor va sifat ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillar.

Ichki	Tashqi
Bank aktivlari va kapitali hajmi	Markaziy bankning pul-kredit siyosati
Marketing faoliyati	Bank tizimida davlat ulushining darajasi
Bankning tarif siyosati va elastikligi	Moliyaviy bozorning rivojlanish darajasi
Bank texnologiyalarining rivojlanganlik darajasi	Bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar
Bak xodimlari malakasi va ixtisoslashuvi	Aholining real daromadlari darajasi
Bank xizmatlar bozoridagi startegiyasi	Aholining bank tizimiga bo'lgan shonchi

Bank faoliyatini daromadlilik nuqtai nazaridan tahlil qilish kredit va foiz siyosatini shakllantirish, kam daromadli operatsiyalarni aniqlab, tijorat banklariga sezilarli daromadlar olish imkonini beruvchi takliflarni ishlab chiqish asoslarini yaratadi. Ushbu masalalarni yechishda faoliyatning iqtisodiy moliyaviy tahlili, bank moliyaviy resurslari harakatini boshqarish mexanizmi, kapitaldan foydalanishning samarali va oqilona tizimi sifatidagi moliyaviy menejmenti katta ahamiyat kasb etadi.

Bank tomonidan keng ko'lamli xizmatlarning ko'rsatilishi uning mijoz uchun ishlashi bugungi kunning talabidir. Shunday ekan, mijozlar manfaatini ko'zlagan holda bank uchun daromad keltiradigan dasturlarni yaratish, tadbirlarni uyushtirish har bir moliyaviy xizmatning tub mohiyatini, foydali va zararli tomonlarini mijozlarga tushuntirib berish bilan shug'ullanuvchi bank bo'limlarini joriy etish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman. Moliyaviy xizmatlarni keng doirada olib borish banklar uchun daromad manbaini kengaytiradi va ularni zamonaviy bank darajasiga olib chiqadi.

Tijorat banklari xizmatining sifat ko'rsatkichlarini oshirishda banklararo raqobat omili muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki raqobat bank xizmatining miqdori va sifatini oshiradi. Bundan tashqari, banklar faoliyatida quyidagi yo'nalishlarni joriy etilishi bank xizmatining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilaydi:

1. Yuqori texnologik masofaviy xizmatlar ko'rsatishni joriy etish.

Banklar faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash orqali xarajatlar kamaytiriladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar mijoz vaxtini tejashga va xarajatlarini qisqartirib, operatsiyalarni tezkorlik bilan amalga oshirishni ta'minlaydi. Bugungi kunda respublikamizda global internet tarmog'ining yuqori sur'atlarda kengayishi va mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining o'sib borayotganligi mazkur yo'nalishda masofaviy xizmatlarni keng joriy qilishni taqozo etadi.

2. Bank marketing faoliyatini takomillashtirish.

Tijorat banklari tomonidan mijozlar ehtiyojini aniqlash va ular uchun zarur xizmatlarni belgilash marketing tadqiqotlariga asoslanadi. Bank marketing tadqiqotlarini aholing ma'lum guruhlari o'rtasida tashkil etib, ularning bank xizmatlariga bo'lgan talabini baholashi va shunga mos siyosatni amalga oshirishi lozim.

3. Bank faoliyatini keng targ'ib qilish.

Bankning uning ko'rsatadigan xizmatlari haqida aholi aholi o'rtasida keng targ'ibotning yo'lga qo'yilganligi kelajakda bank mijoz bazasini kengayishiga olib keladi. Chunki aholi qaysi bank to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lsa, ishbu bank xizmatlaridan foydalanish darajasi oshadi. Bank faoliyatini keng targ'ib qilish va uni tanitish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- ✓ internet tarmog'ida reklama doirasini kengaytirish;
- ✓ televideniya va radio tarmoqlarida bank xizmatlari hamda uning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni targ'ib etish;
- ✓ ommabop matbuot nashrlarida bank faoliyatini targ'ib etish.

Shuningdek, bank faoliyati bilan yaqindan tanishtirish va uni kengaytirish uchun konferensiyalar tashkil etish. Bank xomiyligida tadbirlarni uyushtirish va turli aksiyalarni tashkil etish orqali mijozlarni keng jalb qilish mumkin.

4. Bank xodimlarining kasbiy maxoratini baholash.

Tijorat banklarida xodimlar faoliyatini baholash menejmentning muhim yo`nalishi hisoblanadi. Baholash jarayoni bank faoliyatining hamma bosqichlarida, ya`ni ishga olishda, lavozimini o`zgartirishda, ish jarayonida va boshqa holatlarda kechadi. Baholashdan maqsad xodimning ish faoliyatidagi qobiliyatini to`lalgicha namoyon etishiga sharoit yaratish. Biriktirilgan vazifalarning bajarish sifatini tahlil etilishi asosida xodim faoliyatiga baho beriladi.

Bank xodimlari mijozlar bilan doimiy aloqada bo`luvchi va xizmatlarni ko`rsatuvchi shaxslar hisoblanib, bank faoliyati natijalari xodimlar bilim darajasi va kasbiy maxoratiga bevosita bog`liq. Bank xodimlari faoliyati samaradorligini oshirish har bir xodim bilan aloxida munosabatda bo`lishni, unung manfaatlari va sharoitini hisobga olishni talab qiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank xizmatlari xilma- xil, ko`lami kengdir. banklararo raqobat kurashi sharoitida bank xizmatlarini tanlash mijoz uchun uning sifati, to`liqligi, tezkorligi hamda bahosiga bog`liq bo`lsa, bank uchun asosiy maqsad xizmat turlarining samaradorligi va jozibadorligiga erishish, pirovard natijada olinadigan daromad bilan mijozlarni jalb etishdan iboratdir. Har bir xizmat turining samaradorligi o`z navbatida bozor konyukturasi, ushbu xizmat turiga bo`lgan talab hamda uning sifatiga to`liq bog`liq ekanligi davr talabi bo`lib qolmoqda.

2. Bank xizmatlarining huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 668-sonli yoriqnomasi 2008-yil 17-mayda 12/2-sonli qaror bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazrligida 2008- yil 27-iyunda 1831-son bilan ro'yxatga olingan.

I-Bob. Umumiy qoidalar.

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutloq huquqga ega.
2. Banknot va tangalarni qalbakilashtirish va noqonuniy tarzda tayyorlash qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.
3. Markaziy bank yo'q qilib yuborilgan, yo'qotilgan qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo'qotgan banknotlar va tangalarning o'rnini qoplamaydi.
4. Ushbu yo'riqnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Banknotlar- markaziy bank tomonidan turli nominaldagi qo'g'oz pullar shaklida muomalaga chiqariladigan pullar;

Inkassatsiya- bank bo'linmalari va ularning mijozlaridan qimmatliklarni qabul qilib olish, yetkazib berish ularni tashish va bank kassalariga topshirish;

Aylanma kassa-naqd pul va boshqa qimmatliklarni qabul qilib olish, ularni boshqa qimmatliklardan alohida saqlash hamda chiqim qilish uchun tashkil etilgan kassa;

Naqd pul zaxirasi- bank mijozlarining naqd pulga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida maxsus tashkil etilgan kassa;

Kechki kassa- ish kuni tugaganidan so'ng inkassatsiya xizmatidan naqd pullar va boshqa qimmatliklar solingan xaltalarni qabul qiluvchi bank kassasi;

Qayta sanash kassasi- bank amaliyot kuni davomida qabul qilingan hamda kechki kassa tomonidan qabul qilib olingan inkassatsiya xaltalaridagi naqd pul va boshqa qimmatliklarni qytata sanab, saralash hamda ular toifalariga ajratish hamda o'rab bog'lashni amalga oshiruvchi bank kassasi;

Kirim kassasi- bank amaliyot kuni davomida bank mijozlaridan naqd pullarni qabul qilib oluvchi bank kassasi;

Chiqim kassasi- bank amaliyot kuni davomida bank mijozlariga naqd pullarni berishni amalga oshiruvchi bank kassasi;

Maxsus kassa- yirik naqd pul tushumiga ega bo'lgan savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida pul tushumlarini qabul qilib olish uchun tashkil etiladigan bank kassalari;

Bankomat- mijozlar tomonidan bankning plastik kartalari orqali o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan elektron mexanik qurilma;

Kassa hujjatlari- qimmatliklarni qabul qilish va berishni amalga oshirish va rasmiylashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi pul hujjatlari;

Kassa operatsiyalari- qimmatliklarni qabul qilish va mijozlarga berish, qayta sanash, saralash, maydalash, ayirboshlash va o'rab bog'lash.

Banklarda mijozlar bialan kassa operatsiyalarini amalga oshirish va naqd pullarga ishlov berish bo'yicha aylanma kassa va operatsion kassalar tashkil etiladi.

Operatsion kassalar quyidagilardan iborat:

- kirim va chiqim kassa;
- pulni qayta sanash kassasi;
- kechki kassa;
- xo'jalik yurutuvchi subektlar qoshidagi maxsus kassa;
- komunal to'lovlarini qabul qilish bo'yicha jamg'arma kassa;
- sayyor kassa va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining lizing to'g'risidagi qonuni 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan bo'lib, N 756-I u 25 moddan iborat.

Tijorat banklarining lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi quyidagi lizing to'g'risidagi qonuning 1-moddaasida Lizing to'g'risidagi qonun hujjatlari haqida shunday yozilgan:

Lizing to'g'risidagi qonun hujjatlari lizingni amalga oshirish paytida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi hamda ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida

O'zbekiston Respublikasining lizing to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining lizing to'g'risidagi qonuning 2-moddasida Lizing tushunchasi haqida yozilgan:

Lizing - moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob'ektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi. Bunda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing ob'ekti lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;
- lizing shartnomasining muddati lizing ob'ekti xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing ob'ektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining yigirma foizidan kam bo'lsa;
- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing ob'ektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to'lab sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing ob'ekti qiymati asos bo'ladi;
- lizing shartnomasi davri uchun lizing to'lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing ob'ektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining to'qson foizidan ortiq bo'lsa.

Joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymat buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Lizing uch taraflama (sotuvchi-lizing beruvchi-lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi-lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo'shimcha ravishda lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining "buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun

1996- yil 30- avgustda qabul qilingan bo'lib (N 279-I)

u 24 moddan iborat.

Tijorat banklarining "buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 2-moddasida Buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari haqida aytib o'tilgan.

Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdir.

Buxgalteriya hisobining vazifalari:

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida Buxgalteriya hisobi sub'ektlari haqida aytilgan.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan shu'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobi sub'ektlaridir.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda buxgalteriya hisobini yuritadi va buxgalteriya (moliya) hisobotini taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasining "buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida Buxgalteriya hisobi ob'ektlari haqida aytilgan.

Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va harajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridir. Buxgalteriya hisobining ob'ektlari jamlama hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Analitik hisobni yuritish tartibi buxgalteriya hisobi sub'ekti tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish haqida yozib o'tilgan.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklanadi.

Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan, shu jumladan, kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi.

Banklarning buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish Markaziy bank tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 24-moddasida Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik haqida aytilgan.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Keyingi yillarda tijorat banklari faoliyatida **ijara** yoki **lizing** (Leasing ing. «ilgari») operatsiyalarini moliyalashtirish bilan bog'liq faoliyat turlari keng rivoj topmoqda. Bu operatsiyalarning mohiyati shundaki, banklar mashina-uskuna, jihozlar, transport vositalari sanoat korxonalariga uzoq muddatli ijaraga berishadi va ular bilan lizing shartnomalarini tuzishadi. Bu holda bank vositalarni sotib olish uchun sanoat korxonalariga ssuda berish o'rniga ularni o'zi sotib oladi va ularni istemolchilarga ijaraga bergan holda, egalik huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda ssuda foizini emas, balki ijara haqini (lizing to'lovini) oladi. Korxonalar uchun esa lizing investitsiyalarni moliyalashtirishning maxsus usullaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy o`lishga erishishni ta`minlash sharoitida, ishlab chiqarishning samaradorligini taminlash va uni kengaytirish uchun likvid mablag`lar hajmining cheklanganligi va ilmiy texnika progressini joriy qilish sharoitida investitsiyalarni optimallashtirish zaruriyati lizing operatsiyalarining roli va ahamiyatini oshiradi va ularni iqtisodiy faoliyatning muhim vositasiga aylantiradi. Lizing korxonaga kerakli vositalarni shu vaqtning o`zida uncha katta bo`lmagan xarajatlar evaziga olish imkonini beradi. Ijaraga oluvchi uchun vositani (asbob uskuna, jihoz va hokazolarni) sotib olish va moliyalashtirish masalalari bir vaqtda hal etiladi. Lizing usulida istemolchilarning ilg`or texnologiyaga tezroq va arzonroq erishishi yengilroq kechadi va bu ishlab chiqarish vositalarining ma`naviy eskirishi bilan bog`liq xarajatlardan qutulish imkonini beradi. Sanoat korxonalari uchun amortizatsiya darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarish vositalarining yuqori rentabelligi, likvidlikning saqlanishi, o`z kapitali harakati, hisob-kitoblarning o`z vaqtida olib borilishi, o`zaro qarzdorliklarning bo`lmasligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning bozor talabiga javob bera olishi va boshqa omillar ularning moliyaviy jihatdan barqaror bo`lishini ta`minlashning asoslaridan hisoblanadi. Lizing operatsiyalarida uch sub`ekt – ijaraga beruvchi, ijaraga oluvchi va mol yetkazib beruvchi ishtirok etadi.

Ijaraga beruvchi – bu odatda moliyaviy harakterdagi vazifani bajaruvchi, ixtisoslashgan moliyaviy (lizing) korxonadir. Lizing, eng avvalo, moliyaviy investitsiyalarning vositasi va ishonchli moliyaviy manbalarni talab qilgani uchun jahon amaliyotida lizing kompaniyalari banklar tomonidan nazorat qilinadi yoki ularning sho`ba korxonalari bo`ladi.

Ijaraga oluvchi – ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun vositalarni ijaraga oluvchi ishlab chiqarish yoki savdo korxonasidir.

Mol yetkazib beruvchi tomon lizing shartnomasi obektini ishlab chiqaruvchi korxona yoki tashkilot bo`lib, u ishlab chiqarish yoki savdo korxonasi sifatida bo`lishi mumkin.

Odatda mol yetkazib beruvchi va ijaraga oluvchi tijorat shartnomasining asosiy shartlarini ishlab chiqishadi. Shu bilan bir qatorda ijaraga beruvchi (bank)

moliyalashtirish shartlarini o'rganib chiqadi va ijaraga oluvchi bilan ijara shartnomasini imzolaydi.

Moliyalashtirish masalasini hal qilishda bank mijozning daromadlik darajasini o'rganib chiqadi, n lizing obektidan to'g'ri va samarali foydalanish imkoniyatlarini ba'zida ekspertlar ko'rib chiqishi va qo'shimcha kafolatlar talab etilishi mumkin. Kontraktda lizing operatsiya bo'yicha ijara muddati, miqdori, valyutasi, ijara haqini to'lash muddati va shartlari, ijaraga olinuvchining vositaning (asbob uskunaning) tarkibi, ishga yaroqligi bo'yicha majburiyatlari va boshqa ko'rsatkichlar o'z ifodasini topishi lozim.

Lizing munosabatlarini tashkil qilishning majburiy shartlaridan biri lizing shartnomasi davrida lizing obektini sug'urtalash hisoblanadi. Lizing qiymati doimiy (har yarim yil, kvartal, oy...) ijara to'lovlarining yig'indisidan tashkil topadi. Ijara to'lovining asosiy tashkil etuvchilari amortizatsiya va kredit uchun to'lanadigan foizlar. Undan tashqari lizing to'lovlari tarkibiga, shuningdek ijara shartnomasida ko'zda tutilgan ijaraga beruvchi xizmatlari ham kiritilishi mumkin. Ijara to'lovlari yig'indisi ijaraga beruvchiga o'z xarajatlarini qoplash va daromad olishini ta'minlaydi.

Amaliyotda lizingning bir necha xil turlari qo'llaniladi. Bular operativ yoki ishlab chiqarish lizingi, moliyaviy lizing va boshqalardir.

Operativ lizing bu ko'proq ishlab chiqarish davri bilan bo'g'liq bo'lgan lizing bo'lib, obekt qisqa davrga, ya'ni uning hayotiy yaroqlilik davridan kam davrga, qisqaroq vaqtga ijaraga beriladi. Bu holda obektning amortizatsiyasi (eskirishi) to'liq amalga oshmaydi, ya'ni obektni yana bir necha marta ijaraga berish imkoniyati saqlanib qolinadi.

Tijorat banklari va ularning lizing kompaniyalari tomonidan odatda ko'proq moliya lizingi operatsiyalari o'tkaziladi. Lizingning bu turi eng ko'p tarqalgan lizing shakillaridandir. U kontraktning o'rta va uzoq muddatliligi bilan xarakterlanadi, bunda amortizatsiya to'liq bo'lishi yoki ijara obekti qoldiq bahoda qaytarib berilishi mumkin. Bu to'g'rida ijaraga oluvchi ijara muddati tugashidan oldin e'lon qiladi.

Moliyaviy lizing haqiqatda ijara obektini uzoq muddatli kreditlash bo'lib, oddiy savdo-sotiqdan (egalik huquqi xarid vaqtida istemolchiga o'tadi) farq qiladi. Lizing kompaniya asosiy vositalarni ijaraga oluvchi korxonaning ko'rsatmasiga binoan sotib oladi va uni shu korxonaga uzoq yoki o'rta muddatga (3,5,7 yilga) ijara shartnomasiga asosan sotishi va lizing muddati tugagandan keyin qoldiq bahoda sotib olish huquqi bilan ijara shartnomasini tuzishi mumkin.

Lizing operatsiyalari kapital bozorida mablag'larni jamlash, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollanish imkoniyatlarini oshirish, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, dastlabki kapital yetarli bo'lmagan sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga lizing yordamida o'z faoliyatlarini boshlash va kengaytirish imkoniyati beriladi.

O'zbekistonda lizing munosabatlari nafaqat o'zining an'anaviy vazifalarini (moliyaviy, ishlab chiqarish, sotish), balki, sifat jihatidan yangi vazifalarni (jonlantirish, takpop ishlab chiqarish, innovatsion, sug'urta) ham bajaradi.

So'nggi yillarda lizing operatsiyalari hajmi oshib bormoqda. Barcha tahlilchilar lizingning quyidagi afzalliklarini e'tirof etmoqdalar:

- lizing operatsiyalari va ular bilan bog'liq xizmatlar ko'lamining doimiy o'sib borishi;
- berilgan mablag' lizing ob'ekti ko'rinishida real ta'minotga egaligi;
- lizing vositasida ko'rsatilayotgan xizmat sifatini va hajmini oshirish hamda yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyati;
- asosiy ishlab chiqarish vositalarini yangilashga ehtiyojmand mijozlar bilan sifat jihatidan yangi hamkorlik munosabatlarning yo'lga qo'yilishi.

Lizing raqobatni rivojlantirishga, asosiy fondlarning yangilanishini tezlashtirishga, lizing bozorini rivojlantirishga, milliy lizing ob'ektlari bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Lizing beruvchilar uchun lizingning yana bir afzal tomoni — uning barqaror daromadlilikidir.

Lizingning harakterli xususiyatlaridan biri lizing ob'ektini ta'minot sifatida qabul qilinishi bo'lib, u shartnomaning amal qilish davrida lizing beruvchining mulki bo'lib qoladi. Agar lizing ob'ekti nolikvid bo'lsa, lizing beruvchi boshqa turdagi ta'minot turlarini: kafillik xati, mol- mulk garovi, bank kafolati va sug'urta polisini talab qilishi mumkin.

Lizing uzoq muddatga berilishini mijozlar maqbul yo'l deb hisoblashadi, biroq amaliyotda esa asbob-uskuna va mexanizmlar bu muddatda ma'nan va jismonan eskirib qolish xavfi bor. Bundan tashqari aholida (jismoniy shaxslar) ham uzoq muddat xizmat qiluvchi jihoz va texnika vositalarini lizingga olish ehtiyoji mavjud.

Biz quyida lizing xizmatlari hajmining o'sishini YAIM o'sishi bilan taqqoslash imkoniga egamiz.


Ma'lumotlari lizingning YAIM dagi ulushi pastligicha qolayotganligini ko'rsatsada, u lizing qo'yilmalarining hajmi o'smaganligini bildirmaydi.

Lizingga berilgan mulklarning qiymati va ularning YaIMdagi ulushi⁹

Йиллар	Лизингга берилган мулкларнинг қиймати, млрд. Сўм	Лизингнинг ЯИМдаги улуши, фоизларда
2001	18,7	0,37
2002	31,3	0,42
2003	36,6	0,37
2005	90,6	0,6
2006	131,1	0,63
2007	214,5	0,76
2008	351,6	0,95
2009	401,6	0,84
2010	430,3	0,7
2011	484,5	0,6

⁹ Alqoriyev Olimxon Furqato'g'lining Lizingga berilgan mulklarning qiymati va ularning YaIMdagi ulushi avtoreferati.

Lizing xizmatlarining hajmi 2011 yilda 2005 yilga nisbatan qariyb 8,5 mar-
ta, YAIM 5 martadan ortiqroqqa oʻsganligi inobatga olinsa, lizing hajmi jiddiy
kengayganligini koʻrish mumkin. Shuni ham alohida taʼkidlash joizki, lizing xiz-
matlari 2008 yildan boshlab keskin oʻsa boshlagan.



Lizing xizmatlari hajmining dinamikasi 2005-yilga nisbatan 2006-yilga kelib
96 mln soʻmga oshgan. 2007-yilga bu koʻrsatkich 337 mln soʻmni tashkil etgan.
2008-yilga 818 mlanni tashkil etgan boʻlib 2011-yilga bu koʻrsatkich 1 mlrd 258
mln soʻmga yetgan¹⁰.

¹⁰ Alqoriyev Olimxon Furqat oʻgʻlining Lizing xizmatlari hajmining dinamikasi avtoreferari.

Tijorat banklari tomonidan faktoring xizmatlarini rivojlantirish.

Tijorat banklarining moliyaviy operatsiyalarining yana bir turi bu faktoring operatsiyalari hisoblanadi. Bu operatsiyalar butun xujalggk kulamida guloplar aylanishini amalga oshirish bilan bog'lehqsir. Faktoring (ingl. Factor — vositachi) — hisob-kitoblarni tashkil etshp sohasidagi yangi xizmat zurla- ritsai bo'lib, mijozning aylanma kapitaliii kreditlash bilan muvofiqlashadi. Bunda operatsiyalarni chet ellarda odatda mahsus faktoring firmalari amalga oshiradi. Ular banklar bilan zich bog'langan yoki ularning ixtisoslashga; sho'balari va kompaniyalari hisoblanadi. Faktoring operyatsiyalarida bank o'z mijozlarining debitorlarga g'alablarini (da'volarini) sotib oladi. Bunda bank talabning 60-70-90%ni (foiz darajasi mijoziing moliyaviy xolati, likvidlilik darajasi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda turli xil bo'lshi mumkin) avans tariqasida birdaniga to'lashi, qolgan qismini esa, (kredit uchun foizni hisobga olmaga holda) belgilangan muddatda, debitordan to'lov tushushidan qa'tiy nazar, to'laydi. hozirgi vaqtda tijorat banklari talablarni (davolarni) sotib olganda moliyaviy risklarni aniqlashlari mumkin, chunki ko'pchilik korxonalarning shu jumladan xorijiy korxonalarning moliyaviy ahvoli to'grisida axborotlar olish imkoniyati qisman bo'lsada mavjuddir. Bu imkoniyat rivojlangan Davlatlardagi keng qamrovli yirik banklar o'rtasidagi kompyuter tarmoqlari tufayli mavjud. Bunday tizim doirasida banklar o'z mijozlariga buxgalteriya, statistika va boshqa axborotlarni taqdim etishga tayyor.

Faktoring mijozlarga xizmat ko'rsatishning universal shakli hisoblanadi, chunki mijozlar o'z talablari (da'volari) bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish, ularning to'lovliligini tekshirishdan holi bo'lishadi. Banklar mol sotib oluvchilarning to'lov qobiliyati to'grisidagi axborotni mijozlariga yetkazishlari, xorijiy davlatlardagi to'lovlar kafolatini o'z bo'yniga olishlari mumkin.

O'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotining rivojlanmaganligi, monetizatsiya koeffitsiyentining past ekanligi kabi sabablar tufayli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor va kreditor qarzdorlik muammosi o'z dolzarbligini saqlab turibdi.

Shu bois, tijorat banklari va faktoring kompaniyalarining faktoring xizmatlari hajmini oshirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklarining faktoring operatsiyalari darajasi va dinamikasiga baho beramiz.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining faktoring operatsiyalari darajasi va dinamikasi¹¹

Ko'rsatkichlar	Yillar					2012 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarishi
	2008	2009	2010	2011	2012	
Banklarning faktoring kreditlari, mlrd. so'm	22,8	50,8	57,4	59,9	31	135,9
Faktoring kreditlari- nin g brutto kreditlar hajmidagi salmog'i, %	0,6	1,3	1,2	0,8	0,4	-0,2

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2008-2012 yillarda respublikamiz tijorat banklarining faktoring kreditlari miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Yurtboshimiz tomonidan 2010 yilda tijorat banklarining umumiy kapital miqdorini 20 foizga oshirish va uningjami summasini 3,6 trln. so'mga yetkazish, yaqin ikki yilda uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan hajmini 10 foizga yetkazish vazifasi qo'yilgan¹².

Birgina 2008-2010 yillar oralig'ida respublikamizning olti tijorat bankining ustav kapitaliga 450 mlrd. so'mdan ortiq davlat mablag'lari yo'naltirildi.

¹¹ Moliya jurnali 08/2012

¹² Каримов И.А. Асосий вазифамиз — Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. — Т.: Ўзбекистон, 2010. — Б. 57.

Tijorat banklarining ishonch- trast xizmatlari

Moliyaviy aktivlar miqdorining o'sishi bilan rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining ishonch (trast, ingl. Trust «ishonch») operatsiyalarning hajmining oshishiga olib kelmoqda. Bankning bu xizmatlari bank bilan mijoz o'rtasida ishonchlilik munosabatlarining o'rnatilishi bilan bog'liqdir. Tijorat banklarining trast bo'limlari mijozlar topshirig'i bo'yicha uning nomidan asosan mulk egaligi bilan bog'liq va boshqa xizmatlarini bajaradi. Banklar trast operatsiyalarini xususiy korxona va firmalar, shaxslar, hayriya fondlari va boshqa tashkilotlar uchun amalga oshiradi. Trast-operatsiyalarni uch turga bo'lish mumkin: merosni boshqarish; dalolatnoma va gamho'rlik bilan bog'liq operatsiyalar va vositachilik xizmatlari bo'yicha ko'rsatiladigan operatsiyalardir.

Merosni boshqarish bilan bogliq trast operatsiyalari xususiy shaxslar dalolatnomasi bo'yicha amalga oshirilib, bankning trast bo'limi bir qator majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Ularning asosiylariga: merosxo'ring merosini sud qarori yoki meros xati asosida to'plash, boshqaruv ma'muriy harajatlarini to'lash, merosxo'rlar o'rtasida merosni bo'lishi va shu oila a'zolariga boshqa xususiy xizmatlarini ko'rsatish kiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari xizmatlari bozori va ularning amalga oshirilish tartibi.

Rivojlangan tijorat banklari taklif qilayotgan yangi xizmatlarni amalga oshirish.

Rivojlangan mamlakatlarning tijorat banklari amaliyotida privat- banking; xolding-banking; internet-banking tizimlari; mobil-banking tizimlari (SMS-banking, STK-banking, Java-banking, WAP-banking, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning innovatsion modellari kabi bank xizmatlari va mahsulotlari keng rivojlanmoqda. Bundan tashqari, AQSH, Germaniya, Birlashgan Qirollik, Kanada, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda metal tangalar muomalasi uchun Penny Arcade bank avtomatik qurilmasi xizmatlari, pochta bo'limlarining moliyaviy va bank xizmatlari, moliyaviy kompaniyalar (uylar) xizmatlari keng yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda muammolarni hal etishda bank tizimini mos ravishda institutsionallashtirish, modernizatsiyalash, milliy iqtisodiyot va aholi talablariga javob beradigan samarali va mustahkam modellarni yaratish dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, taraqqiy etgan mamlakatlar ilg'or tajribasini mexanik tarzda ko'chirib emas, balki, mahalliy sharoitga moslashgan o'zining xususiy huquqiy va institutsional asoslarini yarata olgan bo'lsa, ushbu mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar va tijorat banklarining yangi moliyaviy xizmatlarni ishlab chiqish holatini muvaffaqiyatli, deyish mumkin bo'ladi.

Tijorat banklari kreditlari hajmining oshishi ular aktivlari miqdorining barqaror sur'atlarda o'sishiga olib kelgan. Bunga sabab shundaki, tijorat banklari kreditlari O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari hajmida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi.

O'zbekiston tijorat banklarining yangi moliyaviy xizmatlari bozori rivojlanishning daslabki bosqichida turibdi va uning uchun xos bo'lgan, ya'ni, banklararo raqobatning kuchayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi

hamda bank xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi kabi xususiyatlar yangidan yangi bank xizmatlarini keng miqiyosda joriy etishni zaruratga aylantirmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida mamlakatimizda banklar barcha strategik bank mahsulotlarini qamrab olgan **170** ga yaqin moliyaviy xizmat turlarini mijozlarga ko'rsatmoqdalar.

2006-2010 yillarda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan quyidagi jadval:

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning ko'rsatkichlari dinamikasi¹³

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Yillar</i>				
	<i>2008</i>	<i>2009</i>	<i>2010</i>	<i>2011</i>	<i>2011 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarishi</i>
<i>Tijorat banklari moliyaviy xizmatlari, mlrd. so'm</i>	719,6	1 423,40	2 129,10	2 731,00	3,8 marta
<i>Tijorat banklari moliyaviy xizmatlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami xizmatlardagi ulushi, foizda</i>	5,5	7,1	8	8,6	3,1 f.p.
<i>Tijorat banklari moliyaviy xizmatlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari, foizda</i>	23,8	32,2	24,7	22,6	-1,2 f.p.
<i>Tijorat banklari moliyaviy xizmatlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlarining prognozi, foizda</i>	17,2	20,5	23,5	26,5	9,3 f.p.
<i>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami xizmatlarning YAIMdagi ulushi, foizda</i>	42,5	45,3	47,2	49	6,5 f.p.

¹³ Alqoriyev Olimxon Furqato'g'lining O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning ko'rsatkichlari dinamikasi avtoreferati.

Tijorat banklari moliyaviy xizmatlari hajmi 2007-2010 yillar mobaynida 3,8 martaga ko'paygan. Moliyaviy xizmatlarning jami xizmatlardagi ulushi 2010 yilda 2007 yilga nisbatan 3,1 f.p.ga oshganligi yangi xizmat turlarining ko'payib borayotganligidan dalolat beradi. Respublikamizda eng ko'p tarqalgan elektron bank xizmatlaridan biri «Bank-mijoz» dasturiy tizimi taxlili ko'rsatishicha, xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar soni 2010 yilda 2005 yilga nisbatan 4,17 martaga oshib, 11,5 mingga yetdi. Tijorat banklarida mobil-banking xizmatlari, jumladan, SMS-banking xizmati ham rivojlanib bormoqda. SMS-banking xizmatidan foydalanuvchi mijozlar soni esa, 2010 yilda 10,0 mingga yetdi. Fikrimizcha, mobil-banking tizimi ideal bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak deb o'ylaymiz. Biz mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi va maksimal qulaylikni ta'minlovchi WAP-banking modeli haqida fikr bildirmoqchimiz. Ushbu platformada mobil-banking tizimlarini rivojlantirish istiqbolliligini WAP-bankingning quyidagi ustuvor tomonlari isbotlaydi:

1. Oddiyligi - mijoz tizimni uzoqdan faqatgina WAP-sayt manzilini mobil telefon brauzerida ko'rsatib ishga tushira boshlashi mumkin.

2. Sozlash elementarliligi - telefonni elementar sozlash talab etiladi. Umuman olganda, hozirgi uyali aloqa operatorlari rivojlanishi bilan qo'shimcha xizmatlarni amalga oshirishda sozlash qiyinchilik tug'dirmaydi.

3. Interfeys aniqligi - WAP-saytni ixtiyoriy miqdorda turli darajada aniqlikdagi logotiplar va ikonkalar bilan bezash mumkin.

4. Funksionalligi - funksional qamrab olish faqat bankka bog'liq.

5. Arzonligi - GPRS-trafikga harajatlar WAP profili orqali ishlashda minimaldir, undan tashqari mijozning o'zi tanlash huquqiga ega: agar amalda umuman tekinga ishlashni xohlasa - GPRS-internet profilini sozlashi mumkin.

6. Universalligi - vap-saytlar turli mobil telefonlarida bir xilda aks etadi.

Zamonaviy mobil banking xizmati talablari

<i>Mezonlar</i>	<i>Mazmuni</i>
Masofadan xizmat ko'rsatish	Mijoz tizimni uzoq masofadan turib ishga tushirishi mumkin.
Sozlash qulayligi	Mijoz mobil telefonini qanday bo'lsa ham sozlashi kerak emas.
Axborot olish tezkorligi	Mijoz maslahatni bankda va uyali aloqa operatori orqali bir xil darajadagi tezkorlik va asoslilik bilan olishi mumkin.
Interfeys qulayligi	Tizim kerakli darajadagi aniqlikni ta'minlashi zarur mijoz murakkab lotin va arab raqamlari uyg'unligini to'lov uchun eslab qolishi kerak emas. Ideal holatda interfeysda logotiplar, tushunarli ikonkalar va shu kabilar bo'lishi kerak.
Bank operatsiyalari xilma-xilligi	Funksionallik barcha talab etiladigan bank operatsiyalarini qamrab olishi kerak.
Tayyor namunalar mavjudligi	Funksionallikdan foydalanish juda oddiy bo'lishi kerak: tayyor ro'yxatning mavjudligi, oldindan kiritib bo'lingan ma'lum doiradagi matn va hokazo mijoz mobil telefon klaviaturasidan minimal miqdorda belgilar kiritishi lozim.
Vositachilik haqi	Tizim yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalarga hech qanday qo'shimcha vositachilik xaqi olinishi kerak emas yoki vositachilik haqi ramziy bo'lishi kerak.
Universalligi	Tizim turli mobil terminallarida muvaffaqiyatli va bir xilda ishlaydi.

" Zamonaviy mobil banking xizmati talablari"¹⁴.

O'z navbatida, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida o'z-o'ziga xizmat qilish tizimlaridan plastik kartochkalar respublika aholisi o'rtasida tobora keng tarqalmoqda. Plastik kartochkalar tahlili natijalaridan ma'lum bo'ldiki, 2011 yilning 1 iyuliga kelib muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 8mln. donaga yetdi.

¹⁴ Alqoriyevning Olimxon Furqat o'g'lining " Zamonaviy mobil banking xizmati talablari" haqida avtoreferati.

Banklar faoliyatida konsalting xizmatlari.

Bugungi kunda respublikamiz tijorat banklari tomonidan aholi va xo‘jalik sub’ektlarining hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo‘yicha hisob-kitob qilish hamda omonatlarini turli muddatlarga milliy va xorijiy valyutada jalb qilish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga qonunchilikda belgilangan maqsadlar uchun kreditlar (aholiga iste’mol, ipoteka va ta’lim kreditlari) ajratish, shuningdek, lizing, faktoring va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish bilan birga, ularga konsalting xizmatlarini ham ko‘rsatib kelmoqda.

Tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga hamda aholiga konsalting (maslahat berish) xizmatlarini, ya’ni, bank xizmati turlari haqida, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan bank operatsiyalari, biznes bo‘yicha hamkorlar bilan optimal hisob-kitobni tashkil qilish, bank tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni kreditlash turlari va usullari, biznes reja tuzish va texnik-iqtisodiy asoslab berish, investitsiya takliflarini texnik-iqtisodiy asoslab berish, investitsiya loyihalariga tanlov konkurenta qatnashish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash, bank kreditlarini rasmiylashtirish uchun zarur hujjatlar paketini tuzish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar likvidligining tahlili, tadbirkorning ishlab chiqarish salohiyatining tahlili, kreditlash va hisob-kitob usullari, investitsiya faoliyati va pul mablag‘lari joylashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, marketing va mahsulotni sotish, moliya va investitsiyalarni boshqarish, bugungi kunda amalda bo‘lgan bank qonun hujjatlari bilan tanishtirish kabi bank xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda.

Tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan mazkur konsalting xizmatlari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga ularning pul mablag‘larini tejashga, uning faoliyati samaradorligini oshirishga, rivojlanishning qo‘shimcha manbalarini aniqlashga ko‘mak bermoqda. Respublikamiz tijorat banklari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga yuqorida keltirilgan konsalting xizmatlarini Adliya vazirligida 1999 yil 19 yanvarda 599-son bilan davlat ro‘yxatiga olingan «O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida konsalting xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar»ga muvofiq amalga oshiradilar.

Mazkur ko'rsatmalar talablari yuzasidan to'xtaladigan bo'lsak, unda tijorat banklari tomonidan konsalting xizmatlarini tashkil qilish borasida quyidagi asosiy talablar belgilangan. Bank konsalting xizmatining asosiy vazifasi tadbirkorlarga va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga bank xizmati va mablag'larini eng samarali qo'yish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ma'lumot-maslahat xizmatlarini ko'rsatishdir. Konsalting xizmati tijorat (to'lov) asosida ko'rsatilishi mumkin. Konsalting xizmat tadbirkorlarga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ularning mablag'larini eng samarali qo'yish, faoliyat samaradorligini oshirish, qo'shimcha rivojlanish manbalarini aniqlash, shuningdek tadbirkorlarni, shu jumladan, chet investorlarini investitsiya faoliyatlariga ko'maklashishi bo'yicha maslahat tusidagi xizmat ko'rsatishi zarur. Tijorat banklarining konsalting xizmati xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga quyidagi masalalar bo'yicha maslahat va ma'lumot berish xizmatlarini ko'rsatishi mumkin:

- bank xizmati turlari haqida;
- tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar;
- biznes bo'yicha hamkorlar bilan optimal hisob-kitobni tashkil qilish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni kreditlash turlari va usullari;
- biznes-reja tuzish va texnik-iqtisodiy asoslab berish;
- investitsiya takliflarini texnik-iqtisodiy asoslab berish, investitsiya loyihalariga tanlov konkursiga katnashish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash
- bank kreditlarini rasmiylashtirish uchun zarur hujjatlar paketini tuzish bo'yicha xizmat ko'rsatish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar likvidligining tahlili;
- tadbirkorning ishlab chiqarish salohiyatining tahlili;
- kreditlash va hisob-kitob usullari;
- investitsiya faoliyati va pul mablag'lari qo'yishning ustuvor yo'nalishlari;
- marketing va mahsulotni sotish;
- moliya va investitsiyalarni boshqarish;
- bank qonunchiligi va bank tizimidagi amaldagi nizomlar.

Mijozlar bilan shartnomalar yil davomida maslahat-ma'lumot xizmati yoki bir martalik xizmat ko'rsatishga tuzilishi mumkin. Banklar ko'rsatilgan xizmatlarining sifati va berilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun amaldagi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda javobgardirlar. Konsalting xizmati tavsiyalari mijozning pul mablag'larini tejashga, uning faoliyati samaradorligini oshirishga, rivojlanishning qo'shimcha manbalarini aniqlashga yordam berishi kerak.

Tavsiyalar yozma holda tuzilishi va bank rahbariyatining imzosi ostida rasmiy ravishda berilishi kerak. Mijoz konsalting xizmatiga murojaat qilganida, nomini, turar joyini, bank hisob raqamini, xizmatning aniq mazmuni va uning maqsadini ko'rsatgan holda yozma shaklda buyurtma beradi. Mijoz bilan kelishuvga asosan, tijorat banki o'z xodimini mijozning korxonasiga quyidagi masalalar bo'yicha yuborishi mumkin:

- buxgalteriya hisobining olib borilishi va hisobotning tuzilishini o'rganish;
- moliyaviy majburiyatlarning bajarilish tartibi va pul mablag'lari harakatinnng prognozini tuzish;
- moliyaviy rejalashtirish tahlili;
- smeta tuzish;
- tovar zaxiralarini boshqarish;
- qo'shimcha harajatlar.

Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, muhtaram yurtboshimizning 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1474-sonli «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat Dasturi to'g'risidagi Qarori va 2011 yil 24 avgustdagi PF- 4354-sonli «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida bugungi kunda respublikamizdagi barcha tijorat banklari va ularning joylardagi filiallarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish maqsadida tadbirkorlar xonasi tashkil qilingan.

Zamonaviy bank xizmatlari bozorining faol ishtirokchisi

Mamlakatimizda tijorat banklari uchun qulay muhitning yaratilgani moliya muassasalarining o'z faoliyat ko'lamini kengaytirishga va bu orqali aholini sifatli bank xizmatlari bilan to'liq ta'minlashiga zamin xozirlamoqda. Bunga yurtimiz moliya bozorida 2008 yil oktabr oyidan faoliyat yuritib, o'z xizmatlari doirasini tobora kengaytirib borayotgan "Amirbank" xususiy ochiq aksiyadorlik tijorat banki faoliyati ham yorqin misoldir. O'tgan vaqt mobaynida bank faoliyati samaradorligini ta'minlashda respublikmiz rahbariyati tomonidan bank tizimida olib borilayotgan islohotlar va ularning hayotga izchil tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etgan¹⁵.

Shundan kelib chiqib, "Amirbank" XOATBning asosiy faoliyati yo'nalishi mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalash hamda yangi mulkdorlar sinfini shakillantirishga qaratilgan. Qolaversa, yoshlarni qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida bank tomonidan yangi fermer xo'jaliklarini tashkil etishga hamda parrandachilikni rivojlantirishga ham alohida e'tbor qaraliyapti, bu borada ajratilayotgan kreditlar miqdori tobora oshib bormoqda.

Bank o'z faoliyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun investitsiyaviy va aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida qaratilgan kredit mablag'larini to'ldirish maqsadida qaratilgan kredit mablag'lari ajratishga ham alohida e'tibor qaratishi natijasida mazkur yo'nalishdagi kreditlar bankning kredit portfelida salmoqli o'rinni egallagan.

Bankning barqaror faoliyati, shubhasiz, aholi farovonligini oshirishga, iqtisodiyotning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, bank va mijoz o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi bevosita ular o'rtasida o'rnatilgan ishonchli munosabatlarga bog'liqdir.

"Amirbank" XOATB o'zining barqaror resurs bazasini mustahkamlash yo'lida aholi va xo'jalik yurutuvchi subektlarning bo'sh pul mablag'larini bankdagi depozitlarga jalb qilish maqsadida tegishli ishlarni amalga oshirmoqda.

¹⁵ Bozor Pul Kredit jurnali 09/2010

"Amirbank" tomonidan mijozlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida aholi gavjum joylarda yangi chakana xizmat ko'rsatish shaxobchalarini ishga tushurgan bo'lib mijozlarga o'z xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Bular: "Baraka", "Fayz" va "Adolat" mini-banklaridir. Mazkur mini banklar tomonidan aholi omonatlarini depozitlarga jalb qilish, mijozlardan kommunal to'lovlarni qabul qilish, "Paynet" tizimi xizmatlarini taklif qilish hamda mijozlarning talab va ehtiyojlarini o'rgangan holda jismoniy shaxslarga mo'ljallangan boshqa xizmatlar ko'rsatmoqda.

Bugungi kunga kelib bank tomonidan mijozlarga bir qator zamonaviy bank xizmatlari taklif etilayotgan bo'lib, ular orasida sms-banking, internet-banking, bank-mijoz kabi xizmatlar ham mavjud. Shu bilan birga, mijozlarga yangi xizmat turlarini taklif etish maqsadida bank tomonidan doimiy ravishda bank xizmatlari bozorida mavjud bo'lgan talab va ehtiyojlar o'rganilmoqda hamda o'tkazilayotgan tadqiqotlar natijasida bank mutaxassislari ishchi guruhlar tarzida yangi xizmat turlarini ishlab chiqish ustidan doimiy izlanishlar olib bormoqda.

Hisob-kitob va kassa xizmatlari

XOATB «AMIRBANK» o'z mijozlariga hisob kitoblar bo'yicha hisob raqamlar ochish va ularni yuritish bo'yicha keng ko'lamli xizmat turlarini taklif etadi, ushbu xizmatlar yuqori sifatli me'yorlar teng keladi.

XOATB «AMIRBANK» quyidagi hisob-kitoblari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadi:

- Milliy valyutadagi barcha hisob kitoblar;
- «Bank-Mijoz», «Internet-banking» va «SMS-banking» dasturlari bo'yicha xizmatlar;
- Kassa xizmatlari;
- Inkassatsiya va qayta sanash xizmatlari.

Milliy valyutadagi hisob-kitoblar quyidagilardan iborat

- Hisob raqam ochish, yopish va hisob raqam hisobini yuritish;
- Kontragentlar bilan elektron hisob kitoblarni amalga oshirish;
- Mijozlar pul mablag'lari bo'yicha kirim va chiqim amaliyotlarini amalga oshirish;
- Mijozlar hisob raqamlari bo'yicha ko'chirmalar taqdim etish;
- Mijozlar hisob raqamlari bo'yicha takroriy ko'chirmalar va ilovalar taqdim etish;
- Mijoz iltimosiga ko'ra to'lov hujjatlarni qaytarish yoki to'lov hujjatlarni o'zgaritish;
- Mijoz iltimosiga ko'ra to'lovlar bo'yicha banklardan ma'lumot olish.

XOATB «AMIRBANK»ning hisob kitob amaliyotlarni amalga oshirish chog'ida quyidagi imkoniyatlari mavjud.

- Majburiy byudjet to'lovlarini amalga oshirish va hisob raqamga kelib tushgan pul mablag'larni kirim qilish;
- Barcha to'lov amaliyotlarni amalga oshirish;
- «Bank-Mijoz» va «Internet-banking» dasturlari orqali naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish;
- «SMS-banking» dasturi orqali mijoz hisob raqamiga kirim qilingan va chiqim qilingan amaliyotlar bo'yicha zudlik bilan mijozni xabardor etish;
- To'lov hujjatlarni o'z vaqtida o'tkazish;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning elektron to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni zudlik bilan amalga oshirish;

XOATB «AMIRBANK» O'zbekiston Respublikasidagi bank xizmatlari bo'yicha eng yirik ishtirokchilaridan biri bo'lib, jismoniy shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga va kichik biznes tashkilotlariga xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yanada mukammalashib bormoqda.

XOATB «AMIRBANK» quyidagi kassa xizmatlarini ko'rsatadi:

- Naqd pul mablag'larini hisob raqamlarga kirim va chiqim qilish;
- Tashkilotlar, uyushmalar, korxonalarga ish xaqi va boshqa chiqim amaliyotlari bo'yicha oldindan naqd pul mablag'larini tayorlab qo'yish.

To'lov kartalari



"AMIRBANK" XOATB Plastik kartochkalar bo'yicha quyidagi xizmatlarni taklif etadi:

Korporativ plastik kartochkalar ochish va ular bo'yicha xizmat ko'rsatish. Korporativ plastik kartochka – yuridik shaxsga (yakka tartibdagi tadbirkor) bank kartasini saqllovchisiga karta hisobvarag'ida hisobda turgan pul mablag'larini

tasarruf etgan holda tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish uchun milliy valyutada naqd pulsiz shaklda to'lovlarni amalga oshirish huquqini beruvchi to'lov kartasidir¹⁶.

Jismoniy shaxslarga plastik kartochkalar ochish va ular bo'yicha xizmat ko'rsatish.

"AMIRBANK" XOATB so'm plastik kartochkasi uning foydalanuvchisini bankomatlar va terminallar orqali naqd pul olish, plastik kartochkalarni to'lovga qabul qiluvchi maxsus terminallar bilan ta'minlangan savdo-xizmat ko'rsatish ob'ektlarida tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish bilan ta'minlaydi.

Pensiya mablag'larining tarqatishda pensionerlarga qulaylik yaratish maqsadida ularga kartochkalar ochish va ular bo'yicha xizmat ko'rsatish.

¹⁶ www.amirbank.uz

Ish haqi loyihasi. Tashkilot va korxona hodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni ularning plastik kartochkalariga o'tkazib berish va ularga xizmat ko'rsatish. Jismoniy shaxslarga plastik kartochkalar ochish – **Jismoniy shaxslarga plastik kartochkalar ochish va ular bo'yicha xizmat ko'rsatish.** "AMIRBANK" XOATB so'm plastik kartochkasi uning foydalanuvchisini bankomatlar va terminallar orqali naqd pul olish, plastik kartochkalarni to'lovga qabul qiluvchi maxsus terminallar bilan ta'minlangan savdo-xizmat ko'rsatish ob'ektlarida tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish bilan ta'minlaydi.

Pensiya mablag'larining tarqatishda pensionerlarga qulaylik yaratish maqsadida ularga kartochkalar ochish va ular bo'yicha xizmat ko'rsatish.

Ish haqi loyihasi. Tashkilot va korxona hodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni ularning plastik kartochkalariga o'tkazib berish va ularga xizmat ko'rsatish. Jismoniy shaxslarga plastik kartochkalar ochish – bepul.

Kreditlar

“Azmi qat’iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir ” (Amir Temur)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular bilan ishonchli va doimiy hamkorlik – “Amirbank” XOATB faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda, bank tomonidan quyidagi asosiy maqsadlarga kreditlar ajratiladi:

- Aylanma mablag'larni to'ldirish;
- Investitsiya loyihalarni moliyalashtirish;
- Eksportga qaratilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bilan bog'liq asosiy vositalarni sotib olish va hokazo.

Omonatlar

Depozit operatsiyalar - banklarning depozitorlar bilan tuzilgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini muayan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalaridir.

XOATB “Amirbank” quyidagi omonat turlarini taklif etadi ¹⁷:

- **«Muborak»**
- **«Baxor tuxfasi»**
- **«Umid»**
- **«Ishbilarmon»**

¹⁷ www.amirbank.uz

Xulosa

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi bank xizmatlari nazariyasidagi atamalarning zaif bazasi, zamonaviy bank xizmatlari bozorida g'arb banklari tajribasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, bank xizmatlarini eng yangi bank texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatish kabi qator muammolar axborotning yopiqligi va olib bo'lmasligi, g'arb va mamlakatimizdagi manbalarda asosan umumiy tavsif va tavsiyalarining mavjudligi kabi ob'ektiv sabablar tufayli yetarli darajada batafsil o'rganilmagan. "Bank xizmati", "bank mahsuloti", "bank operatsiyasi" tushunchalariga farqi o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi aniqlandi.

Bank xizmatlari yangi xizmatlarni taklif etish va ularning sifat xususiyatlarini yaxshilash yo'li bilan mijozlarni jalb etishga qaratilgan. Bank xizmati bank operatsiyalarini optimal darajada bajarishga ko'maklashadi, ishlab chiqilgan va ko'rsatilgan bank xizmatlari esa bank operatsiyalari bilan birgalikda bank mahsulotini yaratadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan bank xizmatining u yoki bu ehtiyojini qondirish qobiliyatlari tavsifi, bank xizmatining foydali xususiyatlari majmuasi bank xizmati sifatini ifodalaydi va bu holat bank xizmatini "tovar" iqtisodiy tushunchasiga tenglashtiradi. Bank xizmatining raqobatbardoshlik ko'rsatkichi sifat ko'rsatkichidan farqli ravishda, mijozning aniq manfaati va ehtiyojlari qondirilishini ta'minlovchi xususiyatlar majmuasi bilan aniqlanadi, boshqa xususiyatlar inobatga olinmaydi. Masalan, bank xizmati sifati yangi xususiyatlarga ega bo'lishi hisobiga sezilarli darajada oshirilsa, lekin, uning qiymati mijozlarning aksariyatiga jiddiy qiziqish uyg'otolmasa, unda bank xizmatining yuqori darajadagi sifati va past darajadagi raqobatbardoshligini kuzatish mumkin.

Tijorat banklarining moliyaviy operatsiyalarining yana bir turi bu faktoring operatsiyalari hisoblanadi. Bu operatsiyalar butun xo'jalik ko'lamida to'lovlar aylanishini amalga oshirish bilan bog'liqdir. Faktoring (ingl. Factor — vositachi) — hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turlarini bo'lib, mijozning aylanma kapitalini kreditlash bilan muvofiqlashadi. Bunda operatsiyalarni chet ellarda odatda maxsus faktoring firmalari amalga oshiradi. Ular banklar bilan zich

bog'langan yoki ularning ixtisoslashga; sho'balari va kompaniyalari hisoblanadi. Faktoring operatsiyalarida bank o'z mijozlarining debitorlarga talablarini (da'volarini) sotib oladi.

Moliyaviy aktivlar miqdorining o'sishi bilan rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining ishonch (trast, ingl. Trast «ishonch») operatsiyalarning hajmining oshishiga olib kelmoqda. Bankning bu xizmatlari bank bilan mijoz o'rtasida ishonchlilik munosabatlarining o'rnatilishi bilan bog'liqdir. Tijorat banklarining trast bo'limlari mijozlar topshirig'i bo'yicha uning nomidan asosan mulk egaligi bilan bog'liq va boshqa xizmatlarini bajaradi.

Korxona va firmalar bunday xizmatlar uchun o'z tijorat banklarining trast bo'limlariga murojaat qiladilar. Ishonch operatsiyalariga obligatsiya zayomiga xizmat ko'rsatish (zayom kafolati bo'lib xizmat qiluvchi mulkdan foydalanish huquqining o'tishi bilan birga olib boriluvchi) kiradi.

Rivojlangan mamlakatlarning tijorat banklari amaliyotida privat-banking; xolding-banking; internet-banking tizimlari; mobil-banking tizimlari (SMS-banking, STK-banking, Java-banking, WAP-banking, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning innovatsion modellari kabi bank xizmatlari va mahsulotlari keng rivojlanmoqda.

Bugungi kunda muammolarni hal etishda bank tizimini mos ravishda institutsionallashtirish, modernizatsiyalash, milliy iqtisodiyot va aholi talablariga javob beradigan samarali va mustahkam modellarni yaratish dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish jarayonida 2008- 2012 yillar mobaynida respublika tijorat banklarining umumiy kapitali va depozitlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, huquqiy va institutsional bazaning takomillashganidan va tijorat banklari iqtisodiy imkoniyatlari hamda kreditlari hajmining o'sishi yuzaga kelishidan dalolat beradi.

Tijorat banklari kreditlari hajmining oshishi ular aktivlari miqdorining barqaror sur'atlarda o'sishiga olib kelgan. Bunga sabab shundaki, tijorat banklari kreditlari O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari hajmida salmog'iga

ko'ra birinchi o'rinni egallaydi. 2012 yilda tijorat banklari brutto aktivlari hajmida kreditlarning salmog'i 55,6 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida mamlakatimizda banklar barcha strategik bank mahsulotlarini qamrab olgan 170 ga yaqin moliyaviy xizmat turlarini mijozlarga ko'rsatmoqdalar.

Tijorat banklari moliyaviy xizmatlari hajmi 2007-2010 yillar mobaynida 3,8 martaga ko'paygan. Moliyaviy xizmatlarning jami xizmatlardagi ulushi 2010 yilda 2007 yilga nisbatan 3,1 foizga oshganligi yangi xizmat turlarining ko'payib borayotganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda respublikamiz tijorat banklari tomonidan aholi va xo'jalik sub'ektlarining hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish hamda omonatlarini turli muddatlarga milliy va xorijiy valyutada jalb qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonunchilikda belgilangan maqsadlar uchun kreditlar (aholiga iste'mol, ipoteka va ta'lim kreditlari) ajratish, shuningdek, lizing, faktoring va boshqa xizmatlarni ko'rsatish bilan birga, ularga konsalting xizmatlarini ham ko'rsatib kelmoqda.

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan mazkur konsalting xizmatlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ularning pul mablag'larini tejashga, uning faoliyati samaradorligini oshirishga, rivojlanishning qo'shimcha manbalarini aniqlashga ko'mak bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: "O'zbekiston", 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, T.: "O'zbekiston", 1996.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida"gi Nizomi, Adliya Vazirligida 2004-yil 30-yanvarda 1306-son bilan ro'yxatga olingan.
5. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqaalari rejasi", Adliya Vazirligida 2004-yil 13-avgustda 773-17-son bilan ro'yxatga olingan.
6. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari", T.: "O'zbekiston", 2009.
7. Karimov I.A. "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlikda", T.: "O'zbekiston", 2005.
8. Abdullayeva Z.Sh "Pul va pul tizimi", T.: "O'zbekiston", 2010.
9. Ermatov M. Yo'ldoshev A. "Bank balansi tahlili", T.: "Bozor pul kredit ", 2002
10. Niyozov Z.D., Boboyev Sh.Q. "Pul, kredit va banklar", S.: SamISI 2006.
11. Rashidov O. Yu., Toymuhammedov I.R. "Pul muomalasi, kredit va moliya", o'quv qo'llanma, T.: TDIU, 2007.
12. O'zbekiston Respublikasining "Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida"gi Nizomi Adliya Vazirligida 2004-yil 1-yanvarda 1304-son bilan ro'yxatga olingan.
13. Ковалева А.М. «Финансы и кредит», М.: «Финансы и статистика» 2006.
14. Галанов В.А. «Финансы, денежное обращение и кредит» М.: «Форум» 2006.
15. Коликова Г.М. «Финансы. Денежное обращение, кредит», учебник под. пред. Шулян П.Н. М.: «Финансы и статистика», 2005.

INTERNET SAYTLARI

www.cbu.uz

www.bank.uz

www.banker.uz

www.thebanker.com

www.lex.uz

www.minfin.uz

www.stat.uz

www.qqb.uz

www.google.uz

www.gov.uz

www.amirbank.uz